

“Ta’lim ishtirokchilarini psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng yaxshi o‘quv-uslubiy qo‘llanma” respublika tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
3-ilova

O‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ommalashtirish bo‘yicha OMMAVIY OFERTA

Ushbu ommaviy oferta — “Ta’lim ishtirokchilarini psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng yaxshi o‘quv-uslubiy qo‘llanma” respublika tanlovi (keyingi o‘rinlarda – tanlov) g‘oliblari tomonidan yaratilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ommalashtirishga oid huquqiy va tashkiliy shartlarni belgilaydi. Oferta ochiq bo‘lib, g‘olib deb topilgan har bir muallif uni rad etmagan taqdirda avtomatik ravishda rozilik bildirgan hisoblanadi.

1-bob. Oferta predmeti

1.1. Ushbu oferta tanlovda g‘olib deb topilgan muallif(lar) tomonidan taqdim etilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining (keyingi o‘rinlarda –Markaz) rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va boshqa ochiq elektron platformalarda bepul foydalanish uchun joylashtirishga rozilik bildirish tartibini belgilaydi.

1.2. Qo‘llanmalarni ommalashtirishdan maqsad ilg‘or pedagogik va psixologik tajribalarni keng pedagogik jamoatchilikka yetkazish, ta’lim sifatini oshirishga ko‘maklashishdir.

2-bob. Mualliflik huquqlari va foydalanish shartlari

2.1. Mualliflar o‘quv-uslubiy qo‘llanmaning mualliflik huquqiga ega bo‘lib qoladi.

2.2. Muallif ushbu ofertaga rozilik bildirgan holda, quyidagi shartlar asosida asarni foydalanishga ruxsat beradi:

o‘quv-uslubiy qo‘llanmani **raqamlitalim.trm.uz** platformasida, Markazning rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, shuningdek, boshqa ochiq elektron platformalarda joylashtirish;

o‘quv-uslubiy qo‘llanmani to‘liq yoki qisqargan shaklda **ta’lim jarayonida erkin foydalanish** uchun bepul tarqatish;

o‘quv-uslubiy qo‘llanma ommalashtirilayotganda muallifning ismi, lavozimi va boshqa mualliflik ma’lumotlari saqlab qolinishini ta’minlash.

2.3. O‘quv-uslubiy qo‘llanma hech qanday tijorat maqsadlarida (sotish, pullik kurslarga kiritish va hokazo) foydalanilmaydi, faqat ijtimoiy foyda, ma’rifiy-tarbiyaviy va o‘quv maqsadlarida ishlatiladi.

2.4. Muallif tomonidan taklif rad etilmasa va Tanlov g'olibi deb e'lon qilinganidan so'ng 5 ish kuni ichida norozilik bildirilmasa, ushbu ommaviy oferta **amalga qabul qilingan** hisoblanadi.

3-bob. Shartlarni o'zgartirish va bekor qilish

3.1. Markaz ushbu ofertaning mazmuniga o'zgartirish kiritishi mumkin, lekin bu o'zgartirishlar ilgari ommalashtirilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalarga nisbatan qo'llanilmaydi.

3.2. Muallif o'quv-uslubiy qo'llanmani ommalashtirishdan voz kechishni istasa, bu haqda Markazga yozma (yoki elektron) ariza orqali murojaat qiladi. Ariza qabul qilinganidan so'ng 10 ish kuni ichida o'quv-uslubiy qo'llanma ochiq manbalardan olib tashlanadi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

4.1. Oferta shartlariga rozilik bildirgan mualliflar Markazning rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va boshqa ochiq elektron platformalarda, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida, konferensiya, forum va seminarlarda ularning nomidan foydalanilishiga rozilik bildirgan hisoblanadi.

4.2. Mualliflar ushbu ofertani qabul qilish orqali Nizomda belgilangan barcha talab va mezonlarni bajarganini, plagiatdan xoli ish taqdim etganini va materiallar ustida mustaqil ishlaganini tasdiqlaydi.